

**DAVLAT MEHNAT INSPEKSIYASI XODIMLARINING HUQUQIY
MAQOMI HAMDA INSPEKSIYA FAOLIYATINI RAQAMLI
INTEGRATSIYA QILISH JARAYONI**

Olimov Sherzod Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston respublikasi adliya vazirligi

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Mustaqil izlanuvchisi

ttolimov@gmail.com

Annotatsiya, Mazkur tezisdavlat mehnat inspeksiyasi xodimlarining huquqiy maqomi, ularning vakolatlari hamda inspeksiya faoliyatini raqamli integratsiya qilish jarayoni yoritilgan. Unda davlat mehnat inspeksiyasining asosiy vazifalari, tekshiruv va nazorat predmeti, mansabdor shaxslarning huquq va vakolatlari, shuningdek, mehnat sohasida joriy etilayotgan raqamli axborot tizimlarining amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, elektron hukumat tizimi doirasida elektron raqamli imzodan foydalanishning huquqiy va tashkiliy jihatlaris asoslab berilib, ushbu mexanizm inspeksiya faoliyatida nazoratni kuchaytirish, hujjat aylanishini soddalashtirish va mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat mehnat inspeksiyasi, mehnat huquqi, mehnatni muhofaza qilish, mansabdor shaxslarning huquqiy maqomi, raqamli integratsiya, elektron hukumat, elektron raqamli imzo.

Аннотация, В данной тезисной работе освещены правовой статус сотрудников Государственной инспекции труда, их полномочия, а также процесс цифровой интеграции деятельности инспекции. Рассмотрены основные функции Государственной инспекции труда, предметы проверок и контроля, правовой статус и полномочия должностных лиц, а также практическое значение внедряемых в сфере труда цифровых информационных систем. Кроме того, обоснованы правовые и организационные аспекты использования электронной цифровой подписи в рамках системы «Электронное правительство», показано, что данный механизм способствует усилению контроля, упрощению документооборота и повышению личной ответственности должностных лиц.

Ключевые слова: Государственная инспекция труда, трудовое право, охрана труда, правовой статус должностных лиц, цифровая интеграция, электронное правительство, электронная цифровая подпись.

Abstract, This thesis highlights the legal status of the employees of the State Labor Inspectorate, their powers, and the process of digital integration of the Inspectorate's activities. It analyzes the main functions of the State Labor Inspectorate, the subject of

inspections and control, the legal status and authorities of officials, as well as the practical significance of digital information systems implemented in the labor sector. Furthermore, the legal and organizational aspects of using electronic digital signatures within the e-Government framework are substantiated, demonstrating that this mechanism enhances control, streamlines document flow, and increases the personal accountability of officials.

Keywords: *State Labor Inspectorate, labor law, occupational safety, legal status of officials, digital integration, e-Government, electronic digital signature.*

Kirish, Bugungi kunda mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlat mehnat inspeksiyasining oʻrni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mehnat sohasida qonuniylikni taʼminlash, xodimlarning mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini nazorat qilish bilan bir qatorda, inspeksiya faoliyatini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb masalaga aylandi. Xususan, davlat boshqaruvi jarayonlarini raqamlashtirish, elektron axborot tizimlari va platformalarini joriy etish davlat mehnat inspeksiyasi faoliyatining samaradorligini oshirish, shaffoflik va hisobdorlikni taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligining tarkibiy boʻlinmasi boʻlib, u ish beruvchilar tomonidan mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilik, aholining bandligi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish, nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlari toʻgʻrisidagi qonunchilik, mehnat toʻgʻrisidagi boshqa huquqiy hujjatlar, mehnatni muhofaza qilish qoidalari hamda mehnat standartlari talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini va tekshiruvini amalga oshiradi.⁷⁷

Tekshiruvlar Oʻzbekiston Respublikasi hududida, qonunchilikda belgilangan tartibda rejali hamda rejadan tashqari oʻtkazadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ-347-son qaroriga asosan 2025-yil 1-martdan boshlab davlat mehnat inspeksiyasi va uning hududiy boʻlinmalari mansabdor shaxslariga mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish, aholi bandligi toʻgʻrisidagi qonunchilik talablarini bajarmaganligi uchun kameral nazorat oʻtkazish vakolati beriladi.⁷⁸

Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan oʻtkaziladigan tekshiruv predmeti –

- mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilik;
- mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar;
- mehnatni muhofaza qilish qoidalari;

⁷⁷ Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 535-moddasi, <https://lex.uz/ru/docs/-6257288#-7385748>

⁷⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2024 yildagi PQ-347-son, <https://lex.uz/uz/docs/-7131782>

- davlat mehnat inspektorlarining ko‘rsatmalari tekshirish predmeti hisoblanadi.

Mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratining predmeti esa – “Mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, barcha tashkilotlar mansabdor shaxslari, fuqarolar — ish beruvchilar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga doir tasdiqnoma asosida mehnat qilayotgan chet ellik fuqarolar tomonidan mehnat, aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda mehnat jarayonida tazyiq va zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik va uning har qanday shaklda namoyon bo‘lishining oldini olish masalalariga doir tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda mehnat standartlari talablariga rioya etishini nazorat qilish hisoblanadi.”⁷⁹

Bugungi kunda davlat mehnat inspeksiyasining mansabdor shaxslari vakolatlari doirasida faoliyat ikki asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi:

- 1 – mehnatni muhofaza qilish yo‘nalishi;
- 2 – mehnat huquqi yo‘nalishi.

Inspeksiya mansabdor shaxslari o‘zlariga yuklangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagi huquq va vakolatlarga ega hisoblanadi:

1. mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, barcha tashkilotlar mansabdor shaxslaridan, shuningdek fuqarolar — ish beruvchilardan nazorat va tekshiruvlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar, axborotlar, statistik ma’lumotlar hamda ma’lumotnomalarni talab qilib olish;
2. inspeksiya vakolatlarini amalga oshirishda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning axborot tizimlari va dasturlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlardan belgilangan tartibda foydalanish;
3. ish beruvchilar tomonidan mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik, aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish hamda mehnatga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvlarini amalga oshirish;
4. tekshiruvlar va monitoring jarayonida foto va video tasvirga olish, tushuntirishlar va boshqa zarur ma’lumotlarni olish, shuningdek zaruratga ko‘ra tarjimonlar, ekspertlar va mutaxassislarni jalb etish hamda ekspertiza tayinlash;
5. aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf etish, shu jumladan qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lgan buyruqlar va boshqa hujjatlarning amal qilishini belgilangan tartibda to‘xtatib turish yoki bekor qilish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan yozma ko‘rsatmalar berish;
6. mehnat va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlariga doir ishlar bo‘yicha sudlarda ekspert yoki mutaxassis sifatida ishtirok etish;

⁷⁹ 07.11.2025 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 706-son qarori/ 8-bob./ 43. Bandi.



7. mehnat faoliyati bilan bog'liq baxtsiz hodisalarni tekshirish va ularning hisobini yuritishda ishtirok etish;

8. ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish, ma'muriy javobgarlik choralari qo'llash hamda jinoyat alomatlari mavjud materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish;

9. xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diruvchi faoliyatni yoki uskunalaridan foydalanishni qonunchilikda belgilangan tartibda to'xtatib turish;

10. mehnatni muhofaza qilish talablariga javob bermaydigan shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

11. huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ish beruvchilarga va tashkilot mansabdor shaxslariga ogohlantirishlar kiritish;

12. aniqlangan qonunbuzilishlar va ularning kelib chiqishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli organlarga taqdimnomalar va takliflar kiritish;

13. inspeksiya vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha axborot-tahliliy materiallar tayyorlash uchun mutaxassislarni jalb etish;

14. chet ellik fuqarolarning mehnat faoliyati bilan bog'liq qonunbuzilishlar aniqlanganda, belgilangan tartibda tegishli qarorlar qabul qilish;

15. inspeksiya vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan sud va boshqa organlarga da'vo bilan murojaat qilish;

16. inspeksiyaning mansabdor shaxslari qonuniy faoliyatiga aralashgan, to'sqinlik qilgan yoki ta'sir o'tkazgan, shuningdek, uning qonuniy talablarini bajarmagan shaxslarga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma rasmiylashtirish, shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Shuningdek, Davlat mehnat inspeksiya faoliyatini tashkil etishda barcha sohalar kabi elektron axborot tizimlarini keng qo'llash va ularni takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilanib, ushbu yo'nalishlarni bosqichma-bosqich takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Davlat rahbari tomonidan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida mamlakatimizda zamonaviy raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish orqali ijtimoiy sohani raqamlashtirish ko'zlangan bo'lib, elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari doirasida "mehnat faoliyati va aholi ijtimoiy ta'minotini tartibga solish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" belgilandi.⁸⁰

Bugungi kunda mehnat sohasida "DMI,mehnat.uz", "Yagona milliy mehnat tizimi", "My.mehnat.uz", "ABKM,mehnat.uz", "Yangiish.mehnat.uz", kabi bir qator raqamli

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni, 06.10.2020.

axborot tizimlari joriy etilib davlat mehnat inspeksiyasi o'z faoliyatida ushbu raqamli tizimlardan keng foydalanilmoqda.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2025-yil 13-martdagi 80-sonli buyrug'iga⁸¹ muvofiq Davlat mehnat inspeksiyasi faoliyatini raqamlashtirish hamda elektron axborot tizimlaridan foydalanishni kengaytirish maqsadida tuman (shahar) ga biriktirilgan davlat mehnat inspektorlariga maxsus planshet ajratilishi ta'minlandi. Bu orqali "E.ma'muriy.ish" tizimidan manzilli ishlash imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 07-noyabrdagi 706-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomning "Vazirlikning vazifalari va funksiyalari"ga bag'ishlangan 1-§ da vazirlik o'z vazifa va funksiyalari doirasida elektron hukumat sohasida axborot tizimlari va axborot resurslarining, shuningdek, elektron davlat xizmatlarining joriy etilishini, rivojlantirilishini hamda integratsiyalashuvini ta'minlaydi, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot tizimlari va axborot resurslarining uzluksiz ishlashini ta'minlashi nazarda tutilgan.⁸²

Shunga ko'ra bugungi kunda Davlat mehnat inspeksiyasi faoliyatini raqamli texnologiyalar, vositalar va axborot tizimlari orqali tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

Mehnat munosabatlari ko'p jihatdan ijtimoiy masalalarni namoyon etib, mehnat sohasidagi masalalar yuzasidan davlat mehnat inspeksiyasiga to'g'ridan – to'g'ri jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatda bo'lishlarini taqozo etadi.

Ma'lumki, elektron hukumat tizimi orqali ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish elektron hukumatning asosiy vazifasidan biri hisoblanadi.⁸³

Bugungi kunda deyarli barcha davlat organlari "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarini ijroga qaratishda, mansabdor shaxslar tomonidan ijro etilishi ta'minlanib ushbu tizim orqali imzolanadi hamda tegishliligi bo'yicha markaziy organlarga yuboriladi.

Mazkur sohada olib borilayotgan tadqiqotning samaradorligini oshirish, shuningdek, yuqorida qayd etilgan raqamli tizim va platformalardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida quyidagi taklifni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

⁸¹ JE97681715 buyruq EDO.ijro.uz

⁸² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.11.2025 yildagi 706-son, <https://lex.uz/docs/-7818769>

⁸³ O'zbekiston Respublikasining, 2015-yil 9-dekabrdagi "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'RQ-395-sonli Qonuning 4-moddasi, <https://lex.uz/docs/-2833860>

Davlat mehnat inspeksiyasi xodimlari tomonidan EDO.ijro.uz hamda boshqa raqamli axborot tizimlari orqali ish yuritishda elektron raqamli imzodan foydalanish yo'lga qo'yilishi lozim.

Elektron raqamli imzo – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo dir.

Bu orqali Davlat mehnat inspeksiyasi mansabdor shaxslari o'z ish yurituvlaridagi "jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga berilgan javoblarni", "So'rov xatlarni", "Topshiriq va manfaatdor organlar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar uchun so'rovlarni", "Sud ishlaridagi hujjatlarni", "Qaror, ko'rsatma, dalolatnoma, ma'lumotnoma va talabnomalarni" hamda "Hisobotlarni" va shu kabi boshqa turdagi hujjatlarni elektron tartibda imzolanadi.

Natijada, tizimga yuklangan har bir ish yuzasidan vertikal nazorat o'rnatiladi, ish hujjatlarining elektron shaklda yuritilishi ta'minlanadi, manfaatdor davlat organlariga yuborilishi lozim bo'lgan xat-hujjatlar bo'yicha pochta xarajatlari qisqartiriladi, ish jarayonlarining sifati yangi bosqichga ko'tariladi hamda mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligi oshiriladi. Shu bilan birga, hisobotlar, ma'lumotlar va boshqa shu turdagi hujjatlarni asossiz o'zgartirish holatlarining oldi olinadi.

Xulosa qilib aytganda Davlat mehnat inspeksiyasining faoliyati raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarini joriy etish orqali modernizatsiyalanmoqda. Ushbu jarayon inspeksiya ishlarining samaradorligini oshirish, hujjatlarni elektron shaklda yuritish va ish jarayonlarida shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli integratsiya mansabdor shaxslar va manfaatdor organlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, nazoratni tizimli qiladi va mehnat munosabatlarida qonuniylilikni kuchaytiradi. Shu tariqa, inspeksiya faoliyatining zamonaviylashtirilishi nafaqat huquqiy nazoratni yaxshilaydi, balki mehnat sohasida davlat boshqaruvini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2024 yildagi PQ-347-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.11.2025 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 706-son qarori.



4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.11.2025 yildagi 706-son qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasining, 2015-yil 9-dekabrdagi “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘RQ-395-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/-2833860>

Boshqa manbalar:

7. JE97681715 buyruq EDO.ijro.uz.

